



## ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNING INSON PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI VA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL ETISHDAGI AHAMIYATI

---

*Qoylibaeva Ariwxan Esenbay qizi*  
*Kegayli xizmat ko'rsatish texnikumi*  
*Bolalar psixologiyasi fani o'qituvchisi*  
*kojlybaevaaryuhan@gmail.com*

**Annotatsiya:** Maqolada kun sayin rivojlangan yangi texnologiyalarning inson psixologiyasiga ta'siri, texnologiyaning ijobiy va sa'lbiy taraflari, kelajagimiz bo'lgan yosh avlodlarga, ta'lim jarayoniga ta'siri yoritilgan. Texnologiyalarni o'rinli maqsad yo'lida foydalanishni o'quvchilarga, talabalarga tushintirish ishlarini olib borish tasvirlangan. Texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiiq etishda, yangi marralarni zavt etishda har bir yosh avlodga motivatsiya berish usullari, ularni ilm-fanga to'g'ri yo'naltirish haqida keng muhokamalar o'rin olgan.

**Kalit so'zlar:** Pedagogika va psixologiya, zamonaviy texnologiyalar, talim texnologiyalari, shaxs, giperaktivlik, gipoaktivlik, addiktivlik, adekvat xulq, delikvent xulq-atvor, motiv, agressivlik, stress, intellekt, ong, ong osti, asab tizimi, neyronlar, temperament, sangvinik tip, flegmatik tip, melanxolik tip, IQ daraja, suidsid.

Respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-ta'lim yo'nalishlari tez su'ratlarda progressiv yo'nalishda qadam tashlamoqda. Bu yo'lda rivojlanishimiz uchun texnologiyalarning o'rni juda tengsizdir. Texnologiya-deganimizda hayolimizga nimalar keladi? Bir kichik zarra bo'lsada yangi kashf etilgan, inson hayotida o'rni, foydasi katta bo'lsa bu ham texnologiya. Mini kameralarning kashf etilishi va jamaotchilikka tadbiiq etilishi katta texnologiyalardan sanaladi.

Texnologiya so'zining asl manosi: Texnologiya (grekcha „techno“ – hunar, usta va „logos“ – fan, ta'lim)[1<sup>1</sup>] (– ilmiy-amaliyot asosida xom-ashyoni tayyor mahsulotga aylantirishning usullari.

Texnologiya (yunoncha techne – san'at, mohirlik, uquv) – sanoat qurilish, transport qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda mahsulotlar olish, ularga

---

<sup>1</sup>Pedagogik texnologiya "S.I. Mirhayitova Toshkent-20225-6v



ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim; shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug'ullanadigan fan. Har bir sohaning o'ziga xos texnologiyasi bo'ladi: Pedagogik texnologiya, tibbiyot texnologiyasi, kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik texnologiyasi, qurilish texnologiyasi, qishloq xo'jaligi va boshqalar.

Shuningdek, texnologiyalar inson hayotini, yaxshi hayot kechirishini taminlash maqsadida amalga oshirilgan yangi izlanishlar, yangi kashfiyotlar asosidir. Biz uchun oddiy ko'ringan televizor, batareya, telefonlar, kompyuterlar o'z zamonida katta kashfiyot bo'lgan, dunyoni larzaga soladigan shov-shuvlarga sabab bo'lgan desam mubolag'a bo'lmaydi. Hozir bir kunimizni ham internetsiz ko'z oldimizga keltira olmaymiz. Telefon hayotimizning ajralmas qismiga aylanib qolgan, achinarlisi u siz hechqerga chiqa olmaydigan, ish qila olmaydigan darajaga kelib qoldik. Tong otganidan to uxlashimizga qadar texnologiyalar bilan birga yashaymiz, ular bilan teng nafas olamiz. Masalan: tong otganida bizni uyqudan uyg'otuvchi budilnik, telefon, televizor ishga, o'qishga borib kompyuter, slayd, prtoektor tushlik paytida elektron gaz pechka, suv qaynatgich va hokazo bunday texnologiyalardan foydalanamiz va ularsiz yashay olmaydigan darajaga kelib qolganimiz darhaqiqat.

Harbir narsaning ijobiy va salbiy taraflari bor. Texnologiyaning ijobiy taraflari ma'lum:

- Hayotni, yashashni yanada osonlashtiradi
- Rivojlanishimizning asosiy poydevori
- Yangi kashfiyotlar yo'lini ochadi
- Inson IQ darajasini, intellekti yuksaltadi
- Ijobiy taraflari juda ham kop

Salbiy taraflari:

- Xalq orasida dangasalik ko'payishi
- Omma orasida semizlik ko'payishi
- Insonlar orasidagi mehr-oqibat tuyg'ularining toboro susayib ketishi
- Texnologiya va internetten maqsadsiz, yomon niyatlarda foydalanish
- Bolalarning kompyuter o'yinlariga tobe' bo'lishi
- Telefonga tobe'lik
- Elektr nurlaridan kasalliklarning yuzaga kelishi

Salbiy taraflari biz va kelajagimiz hayotida ta'siri juda kuchli. yoshlarning bolalarning o'yinlariga tobe' bo'lib qoliyotganligi, o'qishga bo'lgan qiziqishining



sustligi shuningdek eng achinarlisi biz hozir bolaligimizni eslaydigan eng zaqqli onlarimizni bolalalarimizga tushintirib bera olamiz:

- Ko'chamiz bolalalar bilan tong otishdan to quyosh botguniga qadar ko'chada qum bilan o'ynardik.

- Havuzga baklashkadan halqa yasab cho'milishga chiqardik

- Sinfmizda do'stlarimizga anketa to'ldirtar edik

- Juda qiziqarli o'yinlarimiz bor edi: qolga solish, teppak, o'rta tushmak, tulkichak, hakka qayda? qishda qorbo'ron, chana haydash va hokazolar...

Shunday zavqli onlarni eslab aytib beramiz. Hozirgi yoshlar chi? Biz bu savolni avval ham o'zimizga berib ko'rdik mi? Katta ehtimollar bilan ular faqat biz yoshligimizda kompyuter o'yinlarini o'ynardik GTA, Kontur Strike, Pubjy, Play station va va hokazo deya shu o'yinlarni gina eslaydigan darajada voyaga yetishlari mumkin. Chunki, hozir o'zim biz kabi ko'chada birga o'ynaydigan bolalarni ko'rmayabman yoki soni juda kamayib ketgan. Shahrimizda kompyuter o'yin klublari soni tobora ortib bormoqda, bular esa yoshlarimizni kompyuter o'yinlariga tobe' bo'lishini ta'minlaydi xolos. Bizga, xalqimizga, millatchiligimizga qarshi keladigan yana bir tarafi bor. Biz juda mehmondo'st, insonparvar, muhtojga yordam qo'lini cho'zadigan bag'rikeng xalqimiz. 20-30 yil avval insonlar orasida mehr-oqibat mehmondo'stlik hozirgidan 2 baravar yuqori bo'lgan, ko'rib turganingizdek bu ko'rsatkich kun sayin pasayib bormoqda. Insonlar orasida mehr-oqibat, halollik, ornomus kabi oliy tuyg'ular yo'qolib boriyatgani juda achinarli holat.

Tadqiqotlarga qaraganda hozirda insonlar miyasining faqat 3-8% ishlatar ekan. Yuqori ko'rsatkichdagi foizlar ya'niy 5,6,7,8 % faqat gina olimlar, professor izlanuvchan kashfiyotchi insonlarga oiddir.<sup>[2]</sup> Agar insonlar miyasini 80-90% gacha ishlatsa zamonimiz va yashashimiz ongimiz, o'ylash darajamiz hozirgidan tubdan farq qiladi. Kun sayin yangi texnologiya, yangi kashfiyotlarning ochilishi inson miyasining ishlash foizlarining kun sayin ortib boriyotganidan dalolat beradi. Ammo, olimlarning ta'kidlashicha borgan sari bunday texnologiyalar rivojlanishi kombinatsion nuqtaga yetsa insonlarda progress emas regress jarayoni yuzaga keladi. Robot, robotsimon ishlarni bajaradigan inson kabi ko'rinishga ega moshinalarning paydo bo'lishi insonlarning hamma ishlarini yengillashtiradi. Bu bo'lsa o'z o'rnida insonlar o'z ishlarini faqatgina texnologiyalar orqali ishlashlarini ta'minlaydi va aksariyat insonlar ishlashdan batamom to'xtaydi va miya va intellekt, IQ darajalarimiz pasayib ketish ehtimoli katta. Olimlar bashoratiga ko'ra

<sup>2</sup> Блум Ф., Лейзерсон А., Хофстедтер Л. Мозг, разум и поведение. — М., 1988.



insonlar hayvon kabi ongsiz shaklda kelib qolishlari ham mumkin deyilgan. Masalan, faraz qilaylik hozirgi kun muammosi kommunal to'lamlar bilan har oy qarshilashamiz. Avvalari borib to'lasak, hozir rivojlangan zamonda hammasi elektron shaklga o'tilgan, to'lash oson faqat 2 daqiqada bitadi, unga borish uchun ortiqcha mablag' va energiya, vaqt ketkazishga aslo hojat yo'q. Avvalgidek bo'lsa vaqtimiz ketardi, energiyamiz ketardi ammo biroz sayr qilardik, tanishlarimizni uchratardik, biroz suhbat qurib ruwxiy dam olardik. Inson fizik jihattan charchoq bo'lishi mumkin ammo psixologik jihattan dam oladi. Bu bilan texnologiyaning hammasi faqatgina yomon ekanligini yozish emas uning foydali va zararli taraflarini ongli ravishda his etishni tushintirishdan iboratdir. Chet elda tahsil olayotgan farzandlarimiz, uzoqdagi yaqinlarimiz bilan istagan paytimiz bemalol video ko'rinishda suhbatlasha olamiz bu eng ijobiy taraflarini nomoyon qiladi. Tobe'lik yosh bolalarning telefonga ipsiz bog'lanishlari salbiy taraflarining nomoyondasidir. Telefonga tobe'lik har xil psixologik kasalliklarining yuzaga kelishini taminlaydi. Bolada doimiy stress, agressivlik, gipoaktivlik, qiziqishning pasayishi, intellektning pasayishi kabi omillar ko'zga tashlanadi. Bunday bolalar tajavuzkor, zo'rovon bo'lib atrofdagilarga zarar yetkazadigan darajada delikvent xulq-atvorga ega bo'ladi. Shuningdek, dangasa bo'lib flegmatik va melanxolik temperament tiplarini o'zida mujassamlashtiradi. Internet orqali yoshlar orasida tarqalgan har xil o'yinlar ularning hayotiga katta havf solyabti va ularni suidsidni amalga oshirishga undayabti. Achinarlisi yoshlarimiz ularning qurbonlariga aylanib qolayabti.

### XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytishim mu'mkinki psixologlar va pedagoglar bunday qaltis vaziyatlarda yoshlarni tog'ri yo'lga jalb etishda juda katta motivasiya daragi hisoblanadi. Har kun dars mobaynida bularni o'quvchi talabalarga biroz bo'lsada tushintirib, internet qurbonlariga aylanib qolmasliklarini ogohlantirib turishimiz, internetten, telefondan hamma texnologiyalardan yaxshi niyatta tog'ri yo'lda foydalanish yo'l –yo'riqlarini tushintirish, shuningdek barcha ta'lim muassasalarida bu mavzu bo'yicha pedagog-psixologlar bilan birgalikta seminar-treninglar tashkillashtirishni tavsiya etkan bo'lar edim. Har bir yosh avlodga uning kelajagi buyuk ekanligi, o'zi qiziqqan sohaga tog'ri yo'naltirishimiz va tog'ri motivatsiya berishimiz juda katta ahamiyat kasb etadi. Zero, bu ulkada yashagan har bir shaxs bu ulkada voyaga etayotgan har bir avlodning hayotiga va tarbiyasiga javobgar deb bilaman.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

Go'ziyev.E Umumiy psixologiya Toshkent "Universitet" 2002 yil

Rivojlanish psixologiyasi.Pedagogik psixologiya Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati"-2018 yil

Крутецкий Улыума психология

Boymurodov N Amaliy psixologoya Toshkent "Yangi asr avlodi"-2008